

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14601696>

O'ZBEKISTON YOSHLARINING QADRIYATLAR FALSAFASIDAGI O'RNI

Donayev Husniddin

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Bosqich talabasi

ABSTRACT:

In this article, the author reflected on the topic of "Values", a problem that is happening in many nations today. The author has given several recommendations on learning values and preserving them. In the process of development without breaking away from the world community, we are talking about ways to find ways to further develop them without losing them. "Without value - there are no values"

Key words: Axiology, value, behavior, manners, "High spirituality - invincible power", power, Central Asia, freedom, ideology.

ANNOTATSIYA:

Muallif ushbu maqolada hozirgi kunda juda ko'plab xalqlarda bo'layotgan muammo "Qadriyatlar" mavzusida fikr yuritgan. Muallif qadriyatlarni o'rganish va ularni asrab-avaylash borasida bir qancha tavsiyalar berib o'tgan. Jahon hamjamiyatidan uzulmagan holda rivojlanish jarayonida qadriyatlarmizni yo'qotmasdan ularni yanada rivojlantirish yo'llarini izlab, ularga yechim topish yo'llari haqida so'z yuritiladi. "Qadrsiz - qadriyatlar bo'lmaydi"

Kalit so'zlar: Aksiologiya, qadriyat, xulq-atvor, odob, "Yusak manaviyat - yengilmas kuch", hokimiyat, O'rta Osiyo, ozodlik, mafkura.

O‘zbekiston qadriyatlarning eng yusak namunalari bo‘lgan makonning eng markazida joylashgan. O‘zbekiston "Buyuk ipak yo‘li" ning eng markazida joylashgan mamlakatdir. Bu diyorning qadriyatlari, o‘ziga xos an’anayu, urf-odatlari doimo boshqa dunyo xalqlarini hayratda qoldirib kelgan. Buning eng asosiy sabablaridan biri bu diyorning an’analarga o‘z farzandlarini doimo hurmat bilan tarbiya qilib kelinishidir. Ammo yaqin yillar ichida bu qadriyatlар O‘zbekistonlik insonlarda anchagina kamayganligini payqashimiz mumkin. Buning sabablari va bu muammoni qanday hal qilish mumkinliginini ko‘rib chiqaylik.

Qadriyat o‘zi nima? Qadriyat mavzusining tarixi, ildizlari va insoniyatga xos qadrlash tamoyillari uzoq o‘tmishga ega.

Avlod va ajdodlarimiz yaratgan qadrlash mezonlarining tarixi eng qadmgi naqlar, rivoyatlar, afsona, hikoya dostonlar ya’ni xalq og‘zaki ijodi, atlas, adres, beqasam ya’ni kiyinish liboslari, ko‘za, xumdon, la’li ya’ni qo‘l mehnat buyumlari, so‘zlashuv odobi, axloq, yoshi kattalarga hurmat yani muomala madaniyati, ota va ona, qavmi-qarindosh, do‘stu yor ya’ni oilaning o‘rni bularning barchasi O‘zbek va O‘rta osiyo xalqlari qadriyatlari xos bo‘lgan urf odatlardir.


Bu qadriyatlarning birin-ketin kamayib tobora, borgan sari yo‘qolib borishiga eng avvalo insonlarning o‘zlari aybdor.



O‘zbekiston dunyo bo‘yicha hozirgi kunda kitob o‘qish bo‘yicha dunyo reytingida 113 o‘rinda turar ekan. Bu natija bilan O‘zbekiston qanday qilib qadriyatlarini saqlab qola oladi? Axir bizning ajdodlarimiz misqollab yiqqan qadriyatlarni biz havolarga uchirmoqdamiz. Yosh farzandlarimizga tug‘ilganidan allalar aytib berishimiz o‘rniga ularga telefondan chet elni keraksiz, umuman tushunarsiz qo‘sish va muziqalarini qo‘yib beryabmiz. Allomalarimiz yozgan kitoblarni o‘qib berishimiz o‘rniga ularni hatto chaqalog‘ligidan qo‘llariga telefon yoki keraksiz o‘yinchoqlar bermoqdamiz, farzandlarimiz maktabga chiqqanlaridan keyin ularga fanlarni o‘zlashtirishlari uchun yordam berish o‘rniga ularni bizga beradigan hamma savollarini ochiq qoldirib biz bu savollardan qochmoqdamiz, oila qanday muqaddas dargoh ekanligini ularning qalbiga singdurmasdan turib ularni oila qurishiga yo‘l ochib bermoqdamiz, alla nimaligini hali bilmasidan turib farzandli bo‘lishlarini biz xoxlayabmiz. Shu narsalarni barchasini sodir bo‘lishiga biz sababchimiz. Biz qachonki o‘z dunyoqarashparimizni vatanimiz qadriyatlariga moslashtirsakkina qadriyatlarimiz bardavom bo‘lishiga ishonsak bo‘ladi.

Farzandlarimizni kitobga, ilmga, milliylikka, oilaga, dinga, odobga o‘rgatibgina qolmay, ularga o‘zimiz namuna bo‘lolsak shundagina qadriyatlarimizni qaytadan tiklasak bo‘ladi.

Hozirgi zamonda O‘zbekiston kabi boshqa O‘rtta Osiyo xalqlarida ham qadriyatlar mavzusining tobora yo‘qolib ketish xavfi ostida turibdi. Farzandlarimizni kitobga, vatanga, ota-onaga, oilaga sadoqatli va vafodor qilib tarbiyalamog‘imiz kerak. Buning uchun Alisher Navoiyning odob haqidagi asarlarini o‘qib bermog‘imiz shart.



Bundan tashqari hozirgi kunda farzandlarimiz oilaga va xalqparvar qilishimiz uchun davlatimiz boshqaruv hokimiyati tomonidan barcha mahallalarda, tuman, viloyat miqyosida xar-xil oilaviy ota va o‘g‘il yoki ona va qiz shunga o‘xshash oilaviy musobaqalar o‘tqazilib turilsa shu narsalar tizimli ravishda amalga oshirilsagina farzandlarimizga qadriyatlarni yuraklariga joylashimiz mumkin.



Yurtni yov bosganda - ozodlik, imperiya hukmronligi nihoyasida - istiqlol, urush davrida - tinchlik, tutqunlikda - erkinlik, kasal va bemorlik davrida - salomatlik, kambagallikda - boylik davrlarini qadrlashini farzandlarimizga yoshlikdan o‘rgatmog‘imiz lozim.

Biz qadimdan ajdodlarimizdan bizgacha saqlanib kelgan qadriyatlarimizni kelajak avlodlarga saqlanib qolishida nafaqat har birimiz balki bunga davlat, jamiyat va oilalarni ham bu borada hamjihatlikka chorlamog‘imiz kerak. Yoshlar va maktab o‘quvchilarini yot g‘oya va mafkuralarni salbiy tomonlarini ularni qalbiga joylamog‘imiz lozim. Buning uchun avvalo ularning ongini milliy g‘oya va faxr-iftixor tuyg‘ulari bilan sug‘orishimiz, ularning tafakkurlarini yanada kuchli shakllantirmog‘imiz kerak.



Yoshlarimizda g‘urur, or-nomus fazilatlarini uyg‘otmog‘imiz, vatanga tuyg‘usini his etmog‘ini qalban his qildirish kerak. Maktab darsliklarini boshlang‘ich sinflardan milliy istiqlol g‘oyasi fanini o‘qitmog‘imiz shart va lozim.

O‘zbekistinning birinchi prezidenti I. A. Karimovning "Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch" asarida ham bu borada juda ko‘plab tavsiyalar berilgan.

Qadriyatlar avlod va ajdodlarning bir-birlariga uzniy bog‘langanligidir. Qadriatlarsiz ma’lum bir xalqning o‘zligini anglashi yoki tarixini bilishi umuman mavjud emas. Qadriyatlar tarix bilan chambarchas bog‘lanib, qadriyatlarni anglash uchun har bir davlat o‘z qadriyatlarini, urf-odatlarini, an‘analarini, milliatini anglamoqchi bo‘lsa, eng avvalo o‘z millatining ta’rixini anglamog‘i lozim.

O‘zbekistonning qadriyatları to‘g‘risida so‘z ketganda Yusuf Hos Hojib, Alisher Navoiy, Bobur, Abdulla Qodiri va jadidchi ajdodlarimizning o‘rni beqiyos ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda yashab ijod etayotgan olimlarimizning ichida qadriyatlar mavzusiga e’tibor qaratgan eng zabardast ijodkor Toshtemir Turdiyevdir. Ijodkorning "Alpomish" dostoni xalqimizning naqadar buyuk qadriyatlarining yuksak darajada ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Har bir xalq farzandi o‘zining buyuk qadriyatlarini doimo yodda saqlashi, kerak bo‘lganda o‘zidan keyingi kelajak avlodlarga ham to‘lliqligicha kam-ko‘stsiz yetqazmog‘i ham burch, ham majburiyatdir.

XULOSA:

Shunday qilib, har bir xalq o‘zining yosh farzandlarini milliy qadriyatlariga e’tibor bilan hurmat-izzat ko‘rsatishi, ulani qadrlashi va esda saqlashini xoxlasa avvalo shu insonlarning o‘zlari o‘rnak ko‘rsatmog‘i lozim. Qadriatlarsiz buyuk xalq bo‘lib, buyuk davlat bo‘lib shakllanishning ilojisi yo‘q.

Foylalanilgan adabiyotlar:

I. A. Karimov.

"Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch",

Toshkent "Ma'naviyat" nashriyoti 2008-yil.

R. Ro'ziyeva yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarini shakllantirish.

Toshkent 2011-yil.

Q. Nazarov

Qadriyatlar fasafasi.

Toshkent 2007-yil.